

O‘zbekiston Respublikasi
Suv xo‘jaligi vazirligining
2026-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
2-ilova

Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati hamda hududiy tizim tashkilotlarida kelib tushayotgan aholi murojaatlari va shikoyatlarini kamaytirish hamda ularni samarali hal etish bo‘yicha

YO‘L XARITA

T/r	Tadbir nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas‘ul ijrochilar
1	Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan sayyor qabullar rejasi asosida vazirlik rahbariyati tomonidan hududlarda sayyor qabullarni tashkil etish.	Jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning qonuniy vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularni qiynayotgan muammoli masalalarini qonun doirasida hal etish choralari ko‘rish.	Tasdiqlangan reja asosida	Vazirlik rahbariyati hamda yordamchilari
2	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlarning rahbarlari o‘zlariga kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilish va murojaatlar ko‘paygan hududlarda sayyor qabullar tashkil etish.	Murojaatlar keskin ko‘paygan hududlarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish maqsadida sayyor qabullar tashkil etish.	Doimiy	Vazirlik tizimidagi respublika va hududiy tashkilotlar rahbarlari
3	Ekin sug‘orish bilan bog‘liq murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish.	Ekin sug‘orish bilan bog‘liq murojaatlar bo‘yicha mualliflarga tezkor munosabat bildirish, navbat asosida suv yetkazib berish, navbati kelmagan iste‘molchilarga yetarlicha tushuntirishlar berish.	Doimiy	Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, J.Abdurazzoqov, A.Mangliyev hududiy tizim tashkilotlari rahbarlari

T/r	Tadbir nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
4	Jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida qonunchilik talablariga muvofiq ko'rib chiqish.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlardagi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshliqlari jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida qonunchilik talablariga muvofiq ravishda ko'rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirish.	Doimiy	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlardagi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshliqlari
5	Vazirlik rahbariyatini shaxsiy (videokonferensaloqa) qabullariga jismoniy va yuridik shaxslar, ularning qonuniy vakillarini qabul qilish ishlarini tashkil etish.	Jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarini vazirlik rahbariyatining qabul kunlarida shaxsiy qabullariga kirishda amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	B.Rajabov, S.Alimov
6	Suv xo'jaligi vazirligining rasmiy veb-sahifasiga murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish bo'yicha ma'lumotnomalarni keng ommaga yoritib borishni tashkil etish.	Vazirlikka kelib tushgan murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish bo'yicha ma'lumotnomalarni keng ommaga yoritib borishni tashkil etish.	Har oy yakuni bilan	B.Rajabov, S.Alimov, Sh.Suyunov tizim tashkilotlarning mas'ul xodimlari
7	Suv xo'jaligi vazirligi va uning tizimidagi hududiy tizim tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan xodimlarning malakasini oshirish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi 582-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida malaka oshirish o'quv kurslarida o'qitish.	2026-yil 1-sentyabr	Vazirlik va uning tizimidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari
8	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlarning rahbarlari hamda murojaatlar bilan ish olib boruvchi mas'ul xodimlari har bir murojaatni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining yagona onlayn platforma	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining yagona onlayn platforma "cabinetpm2.gov.uz" tizimida har bir murojaatni ro'yxatga olish,	2026-yil davomida	Vazirlik tizimidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari

T/r	Tadbir nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
	“cabinetpm2-.gov.uz” tizimida ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va nazorat qilish ishlarini ta’minlash.	ko‘rib chiqish va nazorat qilish ishlarini amalga oshirish.		
9	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlar rahbarlari hamda murojaatlar bilan ish olib boruvchi mas’ul xodimlari 2025-yilda yo‘l qo‘yilgan takroriy murojaatlar ulushini 2026-yilda kamida ikki barobarga qisqartirish choralarini ko‘rish.	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlar rahbarlari hamda murojaatlar bilan ish olib boruvchi mas’ul xodimlari ekin sug‘orish bilan bog‘liq murojaatlar bo‘yicha mualliflarga tezkor munosabat bildirish, navbat asosida suv yetkazib berish, navbati kelmagan iste’molchilarga yetarlicha tushuntirishlar berib, takroriy murojaatlar ulushini qisqartirish.	2026-yil davomida	Vazirlik tizimidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari
10	Vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlarning rahbarlari hamda murojaatlar bilan ish olib boruvchi mas’ul xodimlari 2026-yil murojaatlarni 85 foizini mahalliy darajada vakolat doirasida qanoatlantirilishini ta’minlash choralarini ko‘rish.	Suv xo‘jaligi sohasiga oid jismoniy va yuridik shaxslarning hududlarda muammoli masalalari hal etilish choralari natijasida murojaatlar kelishi keskin pasayadi hamda aholining sohaga oid muammoli masalalari o‘z yechimini topadi.	2026-yil davomida	Vazirlik va uning tizimidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari

Izoh: Yo‘l xaritasidagi ijrochilar boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.